

Har bir tuman va shaharda Prezident Xalq qabulxonasi ochiladi



Shavkat Mirziyoyev har bir tuman va shaharda Prezidentning Xalq qabulxonasini ochish to'g'risidagi farmonni imzoladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-dekabr kuni "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Farmonda qayd etilishicha, sentyabr so'ngida ochilgan bosh vazir virtual qabulxonasi qisqa davrdagi faoliyati davomida aholining eng dolzarb muammolarini hal etish imkonini beruvchi, davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, barcha darajadagi hokimiyatlar bilan fuqarolar o'rtaсидаги hamkorlikning samarali mexanizmiga aylandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, murojaatlarning aksariyat qismi tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishiga xalaqit berayotgan to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, qonunchilikka zid bo'lgan idoraviy qarorlarni bekor qilish, ishga joylashish, sog'liqni saqlash, bank kreditlaridan erkin foydalanish, uy-joy-kommunal va yo'l-transport xizmatlari sifatini yaxshilash masalalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining faoliyati yuzasidan kelib tushmoqda.

Ayni paytda, farmonda keltirilishicha, virtual qabulxona faoliyati "davlat organlarining murojaatlar bilan bog'liq ishni tashkil etishda ularni ko'rib chiqish tartibi va muddatlariga, rasmiyatchilik, byurokratizm va sansalorlik holatlariga doir qator tizimli kamchiliklarni aniqladi".

2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan hamda aholining O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi ishi to'g'risidagi ko'plab ijobiy fikrlarini e'tiborga olib, barcha darajadagi davlat organlari faoliyatida "Xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyilni amalda qaror toptirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar bilan ishlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida O'zbekiston Prezidentining Xalq qabulxonasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi tashkil etish ko'zda tutilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo'y sunuvchi shaharlardan tashqari) esa O'zbekiston Prezidentining Xalq qabulxonalarini faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagilar Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (bundan buyon — murojaatlar) bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash;
- fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga (bundan buyon — davlat organlari) va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;
- Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qat'iy amal qilgan holda, to'liq, xolis va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil etish;
- Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo'yicha davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;
- jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining mansabdar shaxslari ishtirokida, shu jumladan videokonferensaloqa orqali o'tkazish;
- Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko'rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo'yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo'li bilan murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

Farmonga ko'ra, Prezident devoni tarkibiy tuzilmasida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tuziladi. Xizmat zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:

- murojaatlarni ko'rib chiqishda aniqlangan tizimli qonunbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan huquqni qo'llash amaliyoti va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxona faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek ularning faoliyatini me'yoriy-uslubiy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash;

- davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining murojaatlar bilan ishlash borasidagi faoliyatini, shu jumladan joylarga sayyor chiqishlarni tashkil etish hamda kelib tushayotgan murojaatlar bo'yicha tezkorlik bilan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish orqali nazorat qilish va muvofiqlashtirish;
- Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan, shuningdek tegishliligiga ko'ra davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlarni qabul qilish, qayta ishlash, ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlar qabul qilinishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;
- mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi, aybdor shaxslar javobgarligining muqarrarligini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- murojaatlarga asos bo'lgan tizimli qonunbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash yuzasidan doimiy tahlillar o'tkazish;
- murojaatlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish, fuqarolar bilan ochiq muloqotni kengaytirish, aholining davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Xalq qabulxonalari kadrlar tarkibini aholi bilan bevosita ishlash uchun zarur bilimga, tashkilotchilik va tahlil qilish qobiliyatiga, shuningdek ma'naviy-axloqiy va psixologik fazilatlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan shakllantirish, to'ldirish va mustahkamlab borish;
- davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining murojaatlar bilan ishlash borasidagi faoliyati haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam axborot berib borish;
- murojaatlar bilan ishlash natijalari ommaviy axborot vositalarida tizimli yoritib borilishini tashkil etish.

Barcha darajadagi Xalq qabulxonalari xodimlari O'zbekiston Prezidenti devonining xodimlari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda tuzilayotgan Xalq qabulxonalari faoliyatini tashkiliy, moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash tegishliligicha Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimiyatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Farmonda davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslari, barcha darajadagi hokimlarga:

- jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullarini, shu jumladan Xalq qabulxonalarini tomonidan tashkil etiladigan qabullarini muntazam o'tkazib borish;
- har oyda Xizmatga murojaatlar bilan ishlashga oid, shu jumladan Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonadan ko'rib chiqish uchun yuborilgan murojaatlar bilan ishlashga oid o'z hisobotini taqdim etib borish vazifasi yuklatildi.

Davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslari murojaatlar to'g'risidagi qonunchilik talablari va normalarini buzganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan javobgarlik xususida qat'iy ogohlantiriladi.

Mamlakat bosh vaziri Abdulla Aripovga bir oylik muddatda Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxona faoliyatini samarali tashkil etish uchun barcha tashkiliy, moliyaviy va moddiy-texnik masalalar hal etilishini ta'minlash topshirildi. Mazkur Farmonning ijro etilishini nazorat qilish O'zbekiston bosh vaziri va Bosh prokuror Ixtiyor Abdullayev zimmasiga yuklatildi.